

Oziq-ovqat xavfsizligi yo'lida

Davlatimiz rahbari-Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev koronavirus infeksiyasining oldini olish, pandemiyaning fuqorolar turmush-tarzi va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga va talablariga rioya qilinishi kerakligini so'rab bir necha marotaba xalqqa murojaat qildilar. Oxirgi videoselektor majlislaridan birida O'zbekiston o'z aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojlarini to'liq qondirish, daromadlarini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilash uchun katta zaxiralar va imkoniyatlarga ega ekanligini ta'kidladilar. Muhtaram Prezidentimiz, karantin choralariga rioya qilgan holda fermerlar, klasterlar va dehqonlar dalalarda, aholi esa, o'z tomorqa yerlarida bahorgi ekin ishlarini davom ettirishlari zarurligini, aks holda ichki bozorda turg'un narxlarni saqlab qolish mushkul bo'lishini uqtirdilar.





Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi ham bu topshiriqlarga bo'lim raisi, Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashi deputati Abdurazak Umirzakovich Mirzaev rahbarligida o'zlarining munosib ulushlarini qo'shib kelmoqda.

Jumladan, joriy yilning mart oyida FA Navoiy bo'limi olimlari tomonidan, A.Mirzaevning deputatlikka nomzodi qo'yilgan Nurota tumani hududidagi 12 ta qishloq mahalliy yoshlar va ayollar bandligi muammosini hal etish, aholi daromadini oshirish maqsadida ularga moychechak (romashka), tirnoqgul (kolendula) kabi dorivor o'simliklarning urug'larini yetkazib berdi. Urug'larni tomorqa yerlariga ekish, parvarish qilish tushuntirilib, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar tarqatildi. Bo'lim tomonidan aholi bilan tuzilgan shartnoma asosida yetishtirilgan gullar sotib olinadi.

Joriy yilning 23-aprelida esa, Bo'lim tomonidan 20 ta qishloq aholisiga beg'araz yordam sifatida, tomorqa yerlarida yetishtirish uchun sifatli navli piyoz va sabzi urug'lari, ularni ekish va yetishtirish yuzasidan tayyorlangan ilmiy qo'llanmalar bilan birgalikda yetkazib berildi. Bo'lim tomonidan, barcha ekilgan o'simliklar zararkunandalariga qarshi zarur bo'lgan preparat dorilarni ham yetkazib berish rejalashtirilgan.

Tomorqalarni aylanish, urug'larni tarqatish jarayonida, o'z uylaridan chiqmasdan, karantin qoidalariga amal qilgan holda foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lib kelayotgan ko'plab nurotaliklarni kuzatdik. Hattoki, eski ota-bobolarimiz odaticha, ikki baquvvat ho'kizga omoch taqib, yer shudgor qilayotgan er-xotinni ko'rib, ham hayratlandik, ham ruhlandik. Bular barchasi xalqimizning har qanday qiyinchiliklarni bardosh, mehnat va sabr bilan yengib o'ta olishining bir ko'rinishi desak ham bo'ladi. Faqat hoxish-istak bo'lsa bas.

Eng achinarlisi shuki, "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi", deganlaridek, deputatimizning vakillari joylarda ayrim tomorqa egalaringina emas, ayrim mahalla faollarining ham haligacha vaziyatga befarq qarashlarda ekanliklariga ham guvoh bo'ldilar...

Muhimi, dorivor va sabzovot urug'larini olgan barcha tomorqa egalari, bu kabi o'tkinchi-qiyin vaziyatda aholiga bo'layotgan e'tibor ayni vaqtida ekanligini ta'kidladilar.

Shuningdek, ular faqatgina barchamiz birgalikda bo'lib harakat qilsak, koronavirus balosini tez orda yengib o'tishimizni ta'kidladilar. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas.

FA Navoiy bo'limi
matbuot xizmati.